XALQ DEPUTATLARI OLMALIQ SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-5-021-10-147-K/24 Olmaliq shahar

Olmaliq shahrining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga va Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-030-10-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda Toshkent viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrdagi 01/01-04/440-sonli xati, Olmaliq shahar hokimining 01/1/2-2429 sonli Taqdimnomasiga asosan, Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashi doimiy komissiyalarining 2024-yil 26-dekabrdagi qo‘shma majlisi hulosasi va sessiya davomida bildirilgan fikrlarni inobatga olib, Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-030-10-0-K/24-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun, Toshkent viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrdagi 01/01-04/440-sonli xati, Olmaliq shahar hokimining 01/1/2-2429 sonli Taqdimnomasi, Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashi doimiy komissiyalarining 2024-yil 26-dekabrdagi qo‘shma majlisi hulosasi va sessiya davomida bildirilgan fikrlar ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Olmaliq shahar mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari **97 611 160 ming so‘m** va xarajatlari ham **97 611 160 ming so‘m ekanligi** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar **0 mlrd.so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi, shuningdek, Olmaliq shahar mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori (11-ilovaga asosan) **483 319 ming so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Shahar mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilova**ga muvofiq hamda shahar mahalliy budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **2-ilova**ga muvofiq, shuningdek, Olmaliq shahar mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari **3-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

4. Shahar mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun **1 804 750 ming so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari **4-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 m^2 uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsientlar quyidagicha:

-yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari **5-ilova**ga muvofiq;

-jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha o‘rnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **6-ilova**ga muvofiq;

Yakka tartibdagi tadbirkor (YaTT)lar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari (diapazon) doirasida hududlar kesimida miqdorlari **7-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

Xalq deputatlari shahar Kengashiga mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlarda tasdiqlash quyidagicha:

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori **8-ilova**ga muvofiq;

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori **9-ilova**ga muvofiq;

mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori **10-ilova**ga muvofiq tavsiya etilganligi inobatga olinsin.

6. Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Sh.Begiyev, shahar Iqtisodiyot va moliya

bo‘limi (Sh.Abdiyev), shahar Soliq inspeksiyasi (I.Aliyev) bilan birgalikda Olmaliq shahrining 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Mahalliy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Olmaliq shahar hokimining matbuot kotibi – Axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi S.Boymirzayev mazkur qarorni ommaviy axborot vositalarida, jumladan mahalliy gazetalarda keng yoritilishini hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

9. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash Olmaliq shahar hokimining birinchi o’rinbosari Sh.Begiyev, bajarilishini ta’minlash shahar Iqtisodiyot va moliya bo’limi (Sh.Abdiyev), shahar Soliq inspeksiyasi (I.Aliyev) rahbarlari zimmasiga yuklatilsin.

10. Mazkur qaror 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

11. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiy islohotlar, qurilish va kommunal soha masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Karimov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi XAMDAMOV KOBIL MURATKULOVICH

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-021-10-147-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2025-yil uchun Olmaliq shahar mahalliy budjeti daromadlari PROGNOZI

ming.so‘mda

№	Daromad turlari	miqdori
	JAMI	**97 611 160**
1	Foyda solig‘i	0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	18 213 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	5 184 160
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	3 267 000
	Aksiz solig‘i jami	5 169 000
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	*0*
	pivo	*0*
5	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*5 169 000*
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 544 960
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	11 795 000
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	18 603 090
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	14 466 000
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	4 205 000
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	7 362 950
12	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	6 104 000
13	Davlat boji	0
14	Yig‘imlar	0
15	Jarimalar	0

16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	697 000

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-021-10-147-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Olmaliq shahar mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag'lari taqsimlovchilariga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari

ming.so'mda

№	Hududiy budjet mablag'lari taqsimlovchilar nomi	miqdori
	Xarajatlar miqdori, jami	**97 611 160**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	*22 810 928*
	shundan:	
	“Mening maktabim”	*1 384 301*
2	Madaniyat bo‘limi	*1 512 527*
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*6 033 067*
4	Sport bo‘limi	*6 053 465*
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1 504 379*
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*915 322*
7	Irrigatsiya bo‘limi	*0*
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*2 014 540*
9	Davlat soliq inspekciyasi	*0*
10	Hokimiyat	*35 739 374*
	shundan:	
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	*316 359*
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	*46 200*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*21 334 390*
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*1 787 472*
	Zahira jamg‘armasi	*1 804 750*
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*598 944*

	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasini saqlash xarajatlari	*83 693*
	Axborot-kutubxona markazlari	*515 251*
12	Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	20 428 614
13	Boshqa tashkilotlar	0

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-021-10-147-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Olmaliq shahridagi 2025-yil uchun ajratma me'yorlari
PROGNOZI

Hududlar nomi		Olmaliq shahri
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	DSB	4%
benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	DSB	25%
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	DSB	24%
Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	DSB	99%
Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	MRI	100%
	DSB	100%
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	MRI	5%
	DSB	100%
Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	DSB	100%
Aylanmadan soliq	Tuman (shahar)lar budjetiga	100%

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-021-10-147-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha Olmaliq shahridagi yer solig‘i stavkalari uchun 2025-yilda belgilangan koeffitsientlar

ming.so‘mda

T/r	**Shahar nomi**	**Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 kv.m uchun**		**Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun (turar joylar uchun belgilangan o‘sish m’yoridan oshmagan holda)**	
		Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (so‘mda)	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (so‘mda)
1	Olmaliq shahri	1,60	6 512,00	1,60	585,60

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-021-10-147-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Olmaliq shahridagi yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan (minimal qiymat) mutloq miqdorlari

T/r	Shahar nomi	Koeffitsient	Mutloq miqdor (so‘mda)
1	Olmaliq shahri	1,00	1 300 000,00

Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-021-10-147-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Olmaliq shahridagi jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha 2025-yilga belgilangan koeffitsientlari

T/r	Shahar nomi	Koeffitsient*				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari

1	Olmaliq shahri	1,15	1,15	1,15	1,15	1,00

Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-021-10-147-K/24 -son qaroriga
7-ilova

YATTlar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari (diapazon) doirasida hududlar kesimida miqdori

ming.so‘mda

T/r	Hudud nomi	2025-yil						
		Chakana savdo			Maishiy xizmat	Boshqa faoliyat turlari	Yuk tashish faoliyati	
		oziq-ovqat va nooziq ovqat tovarlari sotish	dexqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi maxsulotlari sotish	gazeta jurnallar va kitob maxsulotlari sotish			3 tonnagacha yuk tashish avtomobillari uchun	3 tonnadan ortiq yuk tashish avtomobillari uchun
1	Olmaliq shahri	500,00	200,00	200,00	200,00	200,00	250,00	350,00

Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-021-10-147-K/24 -son qaroriga
8-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar

(Qishloq xo‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	**Shahar nomi**	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Olmaliq shahri	1,15	1,15	1,15	1,15	1,15	1,15	1,15	1,15

Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-021-10-147-K/24 -son qaroriga
9-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar*

T/r	**Shahar nomi**	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanets jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Olmaliq shahri	1,30	1,25	1,25	1,30	1,30	1,30	1,30

Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-021-10-147-K/24 -son qaroriga
10-ilova

Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori

ming.so‘mda

T/r	Shahar nomi	II. Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan daromad solig‘i, ming so‘mda					
		Turar joylar uchun			Noturar joylar uchun		
		2025-yil minimal qiymat	koeffit-sient	2025-yil stavka	2025-yil minimal qiymat	koeffit-sient	2025-yil stavka
1	Olmaliq shahri	5,50	1,30	7,15	11,00	1,30	14,30

Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-021-10-147-K/24 -son qaroriga
11-ilova

2025-yilda shahar budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

ming so‘mda

№	Hudud	2025-yil
1	Olmaliq shahri	483 319